XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-sentabr VI-71-62-6-89-K/24 Chust tumani

Chust tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 28-fevraldagi Namangan viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-1959-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Chust tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 7-avgustdagi 80-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Chust tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Chust tumani bilan chegaradosh boʻlgan Kosonsoy, To'raqo'rg'on va Pop tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi – Sh.Isomovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

SALIMJONOV
BAXTIYORJON
RAXIMJONOVICH

Xalq deputatlari Chust tumani
Kengashining
2024-yil 24-sentabrdagi
VI-71-62-6-89-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyati Chust tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

A dan B gacha Qirgʻiziston Respublikasi yerlari bilan 1-2-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi.boshlangʻich 2- nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°06'31,808", sharqiy uzoqlik 71°23'51,322").*

B dan D gacha Kosonsoy tumani yerlari bilan 2-20-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali avtomobil yoʻlini va beton ariqni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo'nalishda 311 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 59 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 134 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'18,548", sharqiy uzoqlik 71°24'03,174").*

3-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab janubiy yoʻnalishda 115 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 79 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 170 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 206 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°06'01,080", sharqiy uzoqlik 71°24'05,180").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 298 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'47,508", sharqiy uzoqlik 71°24'04,592").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 290 metr masofani oʻtib, janubiy yoʻnalishda 150 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'33,780", sharqiy uzoqlik 71°24'00,909").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 127 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy yo'nalishda 84 metr va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 24 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°05'26,892", sharqiy uzoqlik 71°24'00,678").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 611 metr masofani oʻtib, Chorbuloqsoy soyiga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy

yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 855 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'46,569", sharqiy uzoqlik 71°23'34,207").*

8-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 31 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 393 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 378 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'24,308", sharqiy uzoqlik 71°23'23,631").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 298 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 52 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 205 metr masofani oʻtrib, ariq boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'09,931", sharqiy uzoqlik 71°23'35,888").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 674 metr masofada Chorbuloqsoy soyini kesib oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'50,196", sharqiy uzoqlik 71°23'45,908").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi Chorbuloqsoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 227 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 65 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'41,587", sharqiy uzoqlik 71°23'48,940").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi Chorbuloqsoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan sharqiy yoʻnalishda 28 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'32,500", sharqiy uzoqlik 71°23'50,339").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi Chorbuloqsoy soyining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 18 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 357 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 73 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 18 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 47 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'18,055", sharqiy uzoqlik 71°24'05,876").*

14-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 33 metr masofada ariqni va yoʻlni kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 259 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'10,741", sharqiy uzoqlik 71°24'08,976").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 225 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 208 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 409 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'01,431", sharqiy uzoqlik 71°24'41,504").*

16-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali zovurni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab, chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 153 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 781 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'34,290", sharqiy uzoqlik 71°24'30,580").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 113 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 176 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 355 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy yoʻnalishda 273 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 233 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 2 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 149 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°01'59,514", sharqiy uzoqlik 71°24'26,842").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy yo'nalishda 92 metr o'tib, janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 184 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 200 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 185 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°01'39,606", sharqiy uzoqlik 71°24'20,174").*

19-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 21 metr masofada zovurni dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, Chorbuloqsoy soyiga tutashadi va soyning boʻylab chap qirgʻogʻi bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 420 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 721 metr masofani oʻtib, Chust, Kosonsoy va Toʻraqoʻrgʻon tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, soy boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°01'07,529", sharqiy uzoqlik 71°24'25,263").*

D dan E gacha To'raqo'rg'on tumani yerlari bilan 20-54-nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 27 metr masofada Kenkulsoy soyini kesib oʻtadi va dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 213 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, soʻng dala tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 386 metr, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 574 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°00'32,315", sharqiy uzoqlik 71°24'11,541").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 971 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°00'04,859", sharqiy uzoqlik 71°24'03,572").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 209 metr masofada soyga tutashadi, keyin soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 511 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°59'48,027", sharqiy uzoqlik 71°24'22,708").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan 1421 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 216 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58'59,400", sharqiy uzoqlik 71°24'44,418").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda 1115 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58'25,867", sharqiy uzoqlik 71°24'50,530").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 448 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58'18,074", sharqiy uzoqlik 71°24'34,420").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 847 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°58'00,637", sharqiy uzoqlik 71°24'57,748").*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1744 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'50,920", sharqiy uzunlik 71°23'44,464").*

28 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 3156 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'55,784", sharqiy uzunlik 71°21'29,751").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 364 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'44,591", sharqiy uzunlik 71°21'34,289").*

30 – nuqtadan chegara chizgʻi dala tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 331 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 225 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'35,905", sharqiy uzunlik 71°21'16,376").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 32 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 35 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 191 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 44 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi, keyin quruq chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 132 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'26,771", sharqiy uzunlik 71°21'06,661").*

32 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 27 metr masofada ariqni kesib oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 108 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va dala tomorqa chegarasiga tutashadi, soʻng dala tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 187 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'20,493", sharqiy uzunlik 71°20'59,983").*

33 – nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 106 metr masofada ariqni kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 24 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 71 metr masofada quruq soyga tutashadi, soʻngra quruq soy boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 74 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 105 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida

joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'10,133", sharqiy uzunlik 71°20'56,782").*

34 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1070 metr masofani oʻtib, dala tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'49,255", sharqiy uzunlik 71°21'28,435").*

35 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 737 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'36,909", sharqiy uzunlik 71°21'04,124").*

36 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 371 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'39,591", sharqiy uzunlik 71°20'49,479").*

37 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 742 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'43,712", sharqiy uzunlik 71°20'22,681").*

38 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 19 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 549 metr, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 152 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'21,779", sharqiy uzunlik 71°20'20,016").*

39 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2918 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'08,457", sharqiy uzunlik 71°20'06,612").*

40 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning chap qirgʻogʻi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1046 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'14,451", sharqiy uzunlik 71°19'31,274").*

41 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻyidan dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 222 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 863 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'48,158", sharqiy uzunlik 71°19'08,061").*

42 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan beton ariqni kesib oʻtadi va beton ariqqa tutashadi, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 299 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 262 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashado,keyin yo lning gʻarb tomomoni nolqm janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 713 metr masofaniu oʻtib, yoʻl joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'20,050", sharqiy uzunlik 71°18'35,101").*

43 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 109 metr, keyin janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 305 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-

janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 338 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'05,375", sharqiy uzunlik 71°18'26,703").*

44 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va Shimoliy Farg‘ona kanaliga tutashadi, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2332 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'09,102", sharqiy uzunlik 71°19'45,762").*

45 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Shimoliy Farg‘ona kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1799 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'47,755", sharqiy uzunlik 71°20'16,877").*

46 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Shimoliy Farg‘ona kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 799 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'23,459", sharqiy uzunlik 71°20'19,108").*

47 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 386 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 338 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 361 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida

joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'53,679", sharqiy uzunlik 71°20'09,204").*

48 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 236 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 50 metr masofada Namangan-Pop temir yo‘liga tutashadi, so‘ng temir yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1606 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'36,675", sharqiy uzunlik 71°18'53,100").*

49 – nuqtadan chegara chizig‘i Namangan-Pop temir yo‘lini, avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 241 metr masofada quruq soyga tutashadi, so‘ng quruq soyning chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 257 metr masofada dala tuproq yo‘lini, soyni kesib o‘tadi va quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 105 metr masofani o‘tib, dala tomorqa chegarasi bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'23,323", sharqiy uzunlik 71°19'06,358").*

50 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 171 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 193 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 137 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 171 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'27,779", sharqiy uzunlik 71°19'32,530").*

51 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 154 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi va hovuz chegarasiga tutashadi, keyin hovuz bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 196 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy

yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 360 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 479 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 142 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'05,725", sharqiy uzunlik 71°18'45,950").*

52 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 328 metr masofada Rezaksoy soyiga o‘tib, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 354 metr, so‘ng umumuy shimoliy yo‘nalishda 303 metr masofada soyni kesib o‘tadi va Sirdaryo daryosiga tutashadi, so‘ng daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 1801 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'49,477", sharqiy uzunlik 71°19'02,100").*

53 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1233 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1533 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1060 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘ogida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'22,482", sharqiy uzunlik 71°16'50,955").*

E dan A gacha Pop tumani yerlari bilan 54-1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

54 – nuqtadan chegarachizig‘i Sirdaryo daryosi qirg‘og‘idanarqiqqa o‘tadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 220 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'28,712", sharqiy uzunlik 71°16'46,953").*

55 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1224 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'26,855", sharqiy uzunlik 71°15'56,017").*

56 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ariqqa o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 286 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o zgartirmagan holda 226 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 345 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'42,904", sharqiy uzunlik 71°15'30,825").*

57 – nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 615 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 230 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'52,079", sharqiy uzunlik 71°14'58,882").*

58 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 139 metr masofada qishloq ichki yo liga tutashadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 263 metr masofada temir yo‘liga tutashadi, so‘ng temir yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 797 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'57,600", sharqiy uzunlik 71°14'24,124").*

59 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda 42 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi, keyin tomorqa devori boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 24 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'00,053", sharqiy uzunlik 71°14'26,825").*

60 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 907 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1103 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'47,616", sharqiy uzunlik 71°13'32,368").*

61 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan tomorqa chegarasiga oʻtadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 52 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 114 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi, soʻngra avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 2016 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'55,875", sharqiy uzunlik 71°13'14,231").*

62 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 16 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 597 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'13,937", sharqiy uzunlik 71°13'05,928").*

63 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 60 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 465 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'27,430", sharqiy uzunlik 71°12'55,410").*

64 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 346 metr masofani oʻtib, keyin yoʻnlalishi oʻzgarmagan holda ariqning oʻng tomoni bilan 297 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻnalishi oʻzgarmagan holda ariqning chap tomoni bilan 189 metr masofani oʻtib, ariq burilishida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'51,980", sharqiy uzunlik 71°12'41,090").*

65 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 363 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 39 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'03,645", sharqiy uzunlik 71°12'36,006").*

66 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 420 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'15,316", sharqiy uzunlik 71°12'27,397").*

67 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 253 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'20,991", sharqiy uzunlik 71°12'19,920").*

68 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 956 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 76 metr masofada 4R-112 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 52 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida

joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'50,421", sharqiy uzunlik 71°12'01,550").*

69 – nuqtadan chegara chizigʻi 4R-112 avtomobil yoʻlidan ariqqa oʻtadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 397 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 112 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'06,975", sharqiy uzunlik 71°11'57,088").*

70 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 119 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1036 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'05,103", sharqiy uzunlik 71°11'11,168").*

71 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali ariqni avtomobil koʻprigi orqali kesib oʻtib, yoʻlga tutashadi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 162 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʼarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 675 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 92 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'14,174", sharqiy uzunlik 71°10'35,991").*

72 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 687 metr masofada dala tuproq yoʻli, Gʻovasoy soyini va quruq soyni kesib oʻtib, quruqsoy boʻyida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'08,098", sharqiy uzunlik 71°10'07,787").*

73 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1414 metr masofada quruq soylarni kesib oʻtib, quruqsoy boʻyida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'50,515", sharqiy uzunlik 71°09'11,970").*

74 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 3578 metr masofada quruq soylarni kesib oʻtib, quruqsoy boʻyida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'01,698", sharqiy uzunlik 71°06'53,406").*

75 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1132 metr masofada quruq soylarni kesib oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 84 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 85 metr masofani oʻtib, quruqsoy boʻyida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'25,898", sharqiy uzunlik 71°06'32,501").*

76 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 6 metr masofada quruq soyni kesib oʻtib, soyning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 166 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 43 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 263 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'19,710", sharqiy uzunlik 71°06'25,512").*

77 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 884 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida

joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'58,820", sharqiy uzunlik 71°06'00,836").*

78 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 43 metr masofanioʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 494 metr masofani oʻtib, Olmossoy soyi qirgʻogʻida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'55,627", sharqiy uzunlik 71°05'42,190").*

79 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Olmossoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1113 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'28,297", sharqiy uzunlik 71°05'29,791").*

80 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Olmossoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 87 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy yoʻnalishda 248 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'37,455", sharqiy uzunlik 71°05'28,637").*

81 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Olmossoy soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1316 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'14,743", sharqiy uzunlik 71°05'22,012").*

82 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 67 metr masofani oʻtib, keyin zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 607 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 23 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'57,507", sharqiy uzunlik 71°05'08,969").*

83 – nuqtadan chegara chizigʻi zovur boʻyidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 696 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'19,251", sharqiy uzunlik 71°05'03,713").*

84 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 328 metr masofada quruq soyga tutashadi, keyin soyning oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1572 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'13,994", sharqiy uzunlik 71°03'44,729").*

85 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2002 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'06,110", sharqiy uzunlik 71°02'53,846").*

86 – nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyni kesib oʻtadi va toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1549 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 497 metr masofani oʻtib, qir adirliklar boʻyida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'49,498", sharqiy uzunlik 71°01'53,881").*

87 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1884 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'23,196", sharqiy uzunlik 71°00'41,215").*

88 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1259 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'48,499", sharqiy uzunlik 70°59'59,013").*

89 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 106 metr masofada quruq soyni kesib o‘tadi va soyning o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1261 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'20,558", sharqiy uzunlik 70°59'28,562").*

90 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 6924 metr masofani o‘tib, quruq soy qirg‘og‘ida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'00,039", sharqiy uzunlik 70°58'28,194").*

91 – nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 2742 metr masofani o‘tib, quruq soy qirg‘og‘ida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'28,800", sharqiy uzunlik 70°58'24,897").*

92 – nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3758 metr masofani o‘tib, qir adirliklar bo‘yida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'12,276", sharqiy uzunlik 70°57'00,617").*


93 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3600 metr masofada quruq soylarni kesib o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'40,970", sharqiy uzunlik 70°55'50,142").*

94 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1061 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 748 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'23,919", sharqiy uzunlik 70°56'34,102")*

Xalq deputatlari Chust tumani
Kengashining
2024-yil 24-sentabrdagi
VI-71-62-6-89-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyati Chust tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining kortografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Chust tumanining chegarasi va yer maydoni

Chust tumanining chegarasining burilish nuqtasi va raqami